


2021- yil uchun Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 43 790,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 4,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YAHM, jami	38 333,9	43 790,8	104,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 578,0	42 578,9	104,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 755,9	1 211,9	104,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 578,0	42 578,9	104,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	15 572,0	18 418,3	104,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	10 489,2	11 299,0	100,4
sanoat	8 435,9	8 821,8	98,6
qurilish	2 053,3	2 477,2	107,9
xizmatlar	10 516,8	12 861,6	109,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 264,3	2 816,6	111,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 868,7	2 294,4	113,4
boshqa xizmat tarmoqlari	6 383,8	7 750,6	107,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 596,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,7 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 43,3 % ni, sanoat tarmog'i 20,7 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 30,2 % ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,4	97,2
mahsulotlarga sof soliqlar	4,6	2,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,6	43,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	28,7	26,5
sanoat	23,1	20,7
qurilish	5,6	5,8
xizmatlar	28,7	30,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	6,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,4
boshqa xizmat tarmoqlari	17,4	18,2

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,3 %), sanoatda – 98,6 % (20,7 %), qurilishda – 107,9 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 109,4 % ni (30,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,5 % (6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,4 % (5,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,5 % dan (18,2 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2020- yilda – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2020- yilda – 0,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2020- yilda – 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2020- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,2 %, qurilish va xizmatlar sohasida – 111,8 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 71,8 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 69,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

